



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
HUQUQNI MUHOFAZA QILISH
AKADEMIYASI**

"Fuqarolik jamiyati"

Umumiy o'rta ta'lim maktab 9-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan dars materiallari



Fuqarolik jamiyati nima?

Fuqarolik jamiyati — davlatdan mustaqil bo'lib, jamiyat taraqqiyotiga faol hissa qo'shuvchi fuqarolar, jamoat tashkilotlari va turli ijtimoiy guruhlar faoliyati yig'indisidir. Bunday jamiyatda odamlar o'z fikrini erkin bildira oladi, jamoat ishlarida ishtirok etadi va davlat faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatadi.

Fuqarolik jamiyatining asosiy maqsadi — inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamiyatda adolat va tenglikni ta'minlash hamda fuqarolarning faol ijtimoiy hayot kechirishiga sharoit yaratishdir.

Fuqarolik jamiyatining asosiy belgilari

Fuqarolik jamiyati rivojlangan davlatlarda fuqarolar o'z huquq va manfaatlarini faol himoya qiladi hamda jamiyat taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Quyida uning asosiy belgilari keltirilgan:



Huquq va erkinliklar ustuvorligi

Inson huquq va erkinliklari davlat manfaatlaridan ustun turadi. Har bir fuqaro qonun oldida teng huquqqa ega.



Faol fuqarolar ishtiroki

Fuqarolar jamiyat hayotida — saylovlar, muhokamalar va jamoat tadbirlarida faol ishtirok etadi.



Nodavlat institutlar mavjudligi

Jamoat tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va mustaqil birlashmalar erkin faoliyat yuritadi.



So'z va fikr erkinligi

Har bir fuqaro o'z fikrini erkin ifoda eta olishi, matbuot va OAV mustaqil bo'lishi zarur.



Ochiqlik va shaffoflik

Davlat organlari faoliyati fuqarolar uchun tushunarli va ochiq bo'lishi kerak.



Qonun ustuvorligi

Barcha fuqarolar va davlat organlari qonun oldida teng. Hech kim qonundan yuqori emas.

Bolalar maydonchasidagi qaror

Vaziyat tavsifi:

Mahallalarning birida yangi bolalar sport maydonchasi qurish rejalashtirildi. Qurilish uchun mahalliy byudjetdan mablag' ajratildi va loyiha yuzasidan fuqarolar bilan muhokama o'tkazilishi belgilangan edi. Biroq amalda loyiha bo'yicha qaror **tor doiradagi shaxslar** tomonidan qabul qilindi.

Mahalla aholisi, ayniqsa, yoshlar va ota-onalar loyihaning joylashuvi hamda sifati bo'yicha o'z fikrlarini bildirish imkoniyatiga ega bo'lmadi. Qurilish yakunlangach, maydoncha **noto'g'ri joyda qurilgani** va undan foydalanish noqulay ekani ma'lum bo'ldi. Natijada fuqarolar o'z manfaatlarining inobatga olinmaganini his qildi.

Muhokama savollari:

1. Fuqarolik jamiyati bu vaziyatda qanday namoyon bo'lishi kerak edi?
2. Uning qaysi belgilari buzilgan deb hisoblash mumkin?
3. Nega fuqarolarning qaror qabul qilish jarayonida ishtiroki muhim?
4. Bu holatda fuqarolarning sustligi qanday oqibatlariga olib keldi?
5. Agar fuqarolar faol bo'lganida, natija qanday bo'lishi mumkin edi?
6. Bu vaziyatni boshqaruvdagi yopiq tizim bilan bog'lash mumkinmi?

Fuqarolik jamiyati institutlari

Fuqarolik jamiyati institutlari — fuqarolarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy manfaatlarini ifodalovchi hamda himoya qiluvchi tashkilot va tuzilmalardir. Ular **davlatdan mustaqil** bo'lib, jamiyat hayotida muhim o'rin tutadi. Bu institutlar jamiyatdagi muammolarni hal etish, fuqarolarning manfaatlarini himoya qilish hamda davlat bilan jamiyat o'rtasidagi aloqani mustahkamlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.



Institutlar turlari va vazifalari



Oila

Jamiyatning asosiy birlamchi bo'g'ini. Shaxsning shakllanishi va qadriyatlarini o'rganish makoni.

Nodavlat notijorat tashkilotlar

Fuqarolar manfaatini himoya qiluvchi mustaqil tashkilotlar. Ijtimoiy muammolarni hal etishda faol ishtirok etadi.



Kasaba uyushmalari

Ishchilar huquqlarini himoya qiluvchi, mehnat munosabatlarida muvozanatni ta'minlovchi tashkilotlar.

Ommaviy axborot vositalari

Mustaqil matbuot va media — davlat faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratining asosiy vositasi.



Daryodagi ekologik muammo

Vaziyat:

Shaharda ekologik muammo yuzaga keldi: daryo bo'yida chiqindilar to'planib, atrof-muhitga zarar yetkaza boshladi. Mahalliy aholi bu holatni bir necha bor ko'targaniga qaramay, tegishli tashkilotlar **tezkor chora ko'rmadi**.

Shundan so'ng bir guruh yoshlar tashabbus ko'rsatib, jamoatchilik aksiyasini tashkil etdi, ijtimoiy tarmoqlarda muammoni yoritdi va nodavlat tashkilot bilan hamkorlikda rasmiy murojaat yubordi. Natijada masala jamoatchilik e'tiboriga tushdi va muammo **bosqichma-bosqich hal etila boshlandi**.

Muhokama savollari:

1. Bu vaziyatda fuqarolik jamiyati institutlari qanday rol o'ynadi?
2. Nega davlat organlaridan tashqari fuqarolar tashabbusi ham muhim?
3. Nodavlat tashkilotlar va jamoatchilik faolligi qanday natija berdi?
4. Agar bu tashabbus bo'lmaganida, vaziyat qanday davom etishi mumkin edi?
5. Fuqarolik jamiyati institutlari davlat boshqaruvini qanday to'ldiradi?
6. Bu holatda yoshlarning ishtirokini qanday baholash mumkin?

☑ Bu holat fuqarolik jamiyati institutlarining real kuchini ko'rsatdi!

Oila — jamiyatning asosi



Oila jamiyatning eng muhim va asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Har bir inson avvalo oilada tarbiya oladi, hayotiy qadriyatlarni o'rganadi va jamiyatga moslashadi. Bolalar va yoshlar **jamiyat kelajagidir**. Shu sababli ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish davlat hamda jamiyatning muhim vazifalaridan biridir.

Davlat bolalar va yoshlarning huquqlarini himoya qilish, ularning har tomonlama rivojlanishi uchun zarur sharoitlarni yaratishga alohida e'tibor qaratadi. Xalqaro huquqda Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya (1989) asosiy hujjat hisoblanadi.



Bolalar va yoshlarning asosiy huquqlari

Yashash va sog'lom rivojlanish huquqi

Har bir bola sog'lom muhitda yashash, tibbiy yordam olish va to'laqonli rivojlanish huquqiga ega. Bu huquq barcha boshqa huquqlarning asosi hisoblanadi va davlat tomonidan kafolatlanadi.

Ta'lim olish huquqi

Har bir bola sifatli ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Ta'lim bolaning shaxsiy rivojlanishi, kelajakdagi kasbiy faoliyati va jamiyatga moslashuvi uchun zaruriy asosdir.

Dam olish va bo'sh vaqt huquqi

Bolalar o'z yoshiga mos o'yin va bo'sh vaqt faoliyatlari bilan shug'ullanish huquqiga ega. Bu huquq bolaning jismoniy va ruhiy salomatligi uchun muhimdir.

Fikr erkinligi huquqi

Har bir bola o'z fikrini erkin ifoda etish huquqiga ega. Bolalar ularga tegishli masalalarda eshitalishi va hisobga olinishi kerak.

Himoyalani sh huquqi

Bolalar zo'ravonlik, kamsitish, ekspluatatsiya va boshqa zararli ta'sirlardan muhofaza qilinishi shart. Bu mas'uliyat oila, maktab va davlatga tegishlidir.

O'quvchining ta'lim huquqi buzilishi

Vaziyat tavsifi:

Umumta'lim maktabida tahsil olayotgan o'quvchilardan biri oilaviy sharoiti sababli darslarga muntazam qatnasha olmay qoldi. Ota-onasi uy-ro'zg'or ishlari, kichik farzandlarga qarash va boshqa oilaviy yumushlarni bajarishda farzandining yordamiga ehtiyoj borligini aytib, uning maktabga borishini **ikkinchi darajali masala** sifatida ko'ra boshladi.

Sinf rahbari va maktab ma'muriyati o'quvchining darslarga qatnashmayotgani haqida xabardor bo'lsa-da, **yetarli choralar ko'rmadi**. Natijada o'quvchi asosiy fanlar bo'yicha bilimlarni o'z vaqtida o'zlashtira olmadi, o'qishga bo'lgan qiziqishi pasaydi va teng sharoitda ta'lim olish imkoniyatidan cheklana boshladi.

Muhokama savollari:

1. Bu vaziyatda qaysi huquq buzilgan?
2. Bolaning ta'lim olish huquqi nimani anglatadi?
3. Oila va davlat bu huquqni ta'minlashda qanday rol o'ynaydi?
4. Maktab ma'muriyatining harakatsizligi qanday baholanadi?
5. Agar bunday holatlar ko'paysa, jamiyatda qanday muammolar yuzaga kelishi mumkin?
6. Bu vaziyatning oldini olish uchun qanday choralar ko'rish zarur?



Bu holat bola huquqlarining ko'p qirrali buzilishiga misol bo'ladi.

Ommaviy axborot vositalari (OAV)

Ommaviy axborot vositalari (OAV) — bu keng jamoatchilikka axborotni muntazam ravishda yetkazish, tarqatish va ommaga ma'lumot berish uchun mo'ljallangan vositalar hamda platformalar majmuidir. Ular orqali yangiliklar, tahliliy materiallar, rasmiy xabarlar, ta'limiy, madaniy va boshqa turdagi axborotlar ommaga yetkaziladi.

Ommaviy axborot vositalari jamiyatdagi muammolarni yoritish, davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish hamda fuqarolarning o'z fikrini erkin ifoda etishiga imkon yaratadi. Shu bois OAV erkinligi fuqarolik jamiyatining muhim belgilaridan biri sanaladi va ko'pincha "**to'rtinchi hokimiyat**" deb ataladi.



OAV turlari va vazifalari



Bosma nashrlar

Gazeta, jurnal, byulleten va boshqa bosma materiallar. Chuqur tahliliy materiallar uchun eng mos vosita hisoblanadi.



Televideniye

Vizual va audio axborot tarqatishning eng keng tarqalgan vositasi. Keng auditoriyaga tezkor ta'sir o'tkazadi.



Radioeshittirish

Ovozli axborot yetkazuvchi vosita. Hududiy qamrovi keng bo'lib, mobil auditoriyaga qulay.



Internet nashrlari

Elektron axborot platformalari, onlayn gazetalar va ijtimoiy tarmoqlar. Tezkor va interaktiv axborot muhiti.



Axborot agentliklari

Boshqa OAVlarga xom axborot yetkazib beruvchi markazlashgan muassasalar. Axborot zanjirida muhim o'rin tutadi.

Tekshirilmagan axborotning oqibatlari

Vaziyat tavsifi:

Mahalliy internet nashrlaridan biri shahar hududidagi maktablar faoliyati haqida tanqidiy maqola e'lon qildi. Materialda maktabda ta'lim sifati pastligi, ichki tartib buzilgani va ayrim noqonuniy holatlar haqida ma'lumotlar berildi. Biroq maqolada keltirilgan ayrim holatlar **tegishli manbalar orqali tasdiqlanmagan**, ayrim faktlar esa to'liq o'rganilmasdan talqin qilingan edi. Xabar qisqa vaqt ichida ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar orqali keng tarqalib, ota-onalar orasida maktab faoliyati haqida **salbiy va noto'g'ri tasavvur** shakllandi. Keyinchalik ma'lum bo'lishicha, maqola voqealarni to'liq o'rganmasdan, bir tomonlama ma'lumotlar asosida tayyorlanib e'lon qilingan.

Muhokama savollari:

1. Ommaviy axborot vositalarining asosiy vazifasi nimadan iborat?
2. Nega axborotni tekshirmasdan tarqatish xavfli?
3. Bu holatda kimlarga zarar yetdi?
4. Axborotning ishonchliligi nima uchun muhim?
5. Bu vaziyatni axborot orqali manipulyatsiya deb baholash mumkinmi?
6. OAV o'z faoliyatida qanday mas'uliyatga amal qilishi kerak?

⊗ Tekshirilmagan axborot jamiyatga katta zarar yetkazishi mumkin!

Ochiqlik va shaffoflik


Ochiqlik nima?

Ochiqlik — davlat organlari, tashkilotlar va mansabdor shaxslar faoliyati to'g'risidagi axborotning jamiyat uchun **erkin va to'siqsiz ravishda taqdim etilishi**, fuqarolarning mazkur ma'lumotlar bilan tanishish va ulardan foydalanish imkoniyati ta'minlanishini anglatadi.

Boshqacha aytganda, davlat nima qilayotgani, qanday qarorlar qabul qilayotgani va qaysi mablag'lardan qanday maqsadlarda foydalanayotgani haqida fuqarolar to'liq ma'lumotga ega bo'lish huquqiga ega.

Shaffoflik nima?

Shaffoflik — davlat organlari va tashkilotlar faoliyatida qaror qabul qilish, boshqaruv va xizmat ko'rsatish jarayonlarining **tushunarli, kuzatilishi mumkin va tekshirish uchun ochiq** tarzda tashkil etilishini anglatadi. Shaffoflik davlatning har bir harakati asoslantirilgan bo'lishi, manfaatdor shaxslarga ularning mazmuni va asoslari haqida aniq axborot berilishini talab etadi.



Ochiqlik va shaffoflikning ahamiyati

Zamonaviy jamiyatlarda davlat organlari faoliyatida ochiqlik va shaffoflik muhim tamoyil hisoblanadi. Fuqarolar davlat qarorlari qay tartibda qabul qilinayotgani va davlat mablag'lari qanday sarflanayotgani haqida ma'lumot olish huquqiga egadir.

Ishonchni mustahkamlaydi

Fuqarolarning davlat boshqaruviga bo'lgan ishonchini oshiradi. Ochiq faoliyat jamoatchilik qo'llab-quvvatlashini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Korrupsiyani oldini oladi

Shaffoflik korrupsiya va noqonuniy xatti-harakatlarning oldini olishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Yashirin faoliyat korrupsiya uchun qulay muhit yaratadi.

Samaradorlikni oshiradi

Davlat boshqaruvining umumiy samaradorligini yuksaltiradi. Ochiq muhitda mas'uliyat oshadi va natijalar yaxshilanadi.



Xalqaro tajribada shaffof davlat boshqaruvi indeksi (Transparency Index) mamlakatlarning boshqaruv sifatini baholashda keng qo'llaniladi.

Maktab ta'mirlash mablag'larining yashirilishi

Vaziyat tavsifi:

Shahar hududidagi maktablardan birida bino va infratuzilmani yaxshilash maqsadida ta'mirlash ishlari uchun byudjet mablag'lari ajratildi. Ta'mirlash jarayonlari boshlanganidan so'ng ota-onalar va jamoatchilik vakillari ajratilgan mablag' miqdori, bajarilayotgan ishlar hajmi va xarajatlar tarkibi haqida ma'lumot olishga qiziqish bildirdi.

Biroq maktab rahbariyati mazkur ma'lumotlarni taqdim etishdan **bosh tortdi**, bu jarayonlarni "ichki xizmat masalasi" sifatida baholadi. Natijada ota-onalar va jamoatchilik orasida turli savollar va shubhalar yuzaga keldi. **Maktab ma'muriyatiga bo'lgan ishonch pasaydi.**



Yashirinlik shubha va ishonchsizlikni keltirib chiqaradi.

Muhokama savollari

1. Ochiqlik va shaffoflik nima degani?
2. Nega jamoatchilik mablag'lari to'g'risidagi axborot ochiq bo'lishi kerak?
3. Ma'lumotni yashirish qanday gumonlarga sabab bo'ladi?
4. Bu holat korrupsiya xavfini oshiradimi? Nima uchun?
5. Agar barcha jarayonlar ochiq-oydin bo'lsa, qanday ijobiy natijalarga erishish mumkin?
6. Shaffoflikni ta'minlash uchun qanday vositalar zarur?

Fuqarolik jamiyati institutlarining davlat boshqaruvidagi o'rni


Nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy birlashmalar, mustaqil OAV, fuqarolar yig'inlari va boshqa jamoatchilik tuzilmalarining davlat organlari faoliyati ustidan **jamoatchilik nazoratini amalga oshirish**, aholining manfaatlarini ifodalash, qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok etish hamda davlat va jamiyat o'rtasida samarali muloqotni ta'minlashdagi ahamiyati beqiyosdir.

Fuqarolik jamiyati institutlari fuqarolar fikrini ifodalaydi, jamiyatdagi muammolarni ko'tarib chiqadi va davlat organlari bilan hamkorlik qiladi. **Agar fuqarolik jamiyati institutlari faol bo'lsa, davlat boshqaruvi yanada samarali va adolatli bo'ladi**, chunki fuqarolar jamiyat hayotida faol ishtirok etib, mamlakat taraqqiyotiga o'z hissalarini qo'shadilar.



Institutlarning asosiy vazifalari

Fuqarolar manfaatini himoya qilish



Muammolarni aniqlash va yechim taklifi

Fuqarolik jamiyati institutlari davlat bilan hamkorlikda ishlash orqali to'rtta asosiy vazifani bajaradi: fuqarolar manfaatini himoya qilish, jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, jamiyatdagi muammolarni aniqlash va hal etish bo'yicha takliflar kiritish hamda davlat va jamiyat o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash. Bu vazifalar birgalikda demokratik boshqaruvning samarali ishlashini ta'minlaydi.

Bolalar maydonchasidagi jamoatchilik nazorati

Vaziyat tavsifi:


Mahalladagi bolalar maydonchasi ta'mirlanishi kerak edi. Mahalliy hokimlik tomonidan mablag' ajratilib, maydonchadagi jihozlar yangilanishi va hudud obodonlashtirilishi rejalashtirildi. Ta'mirlash ishlari tugagach esa aholining ayrim vakillari **jihozlar sifatisiz o'rnatilgani, ayrimlari esa umuman ishlamayotganini** payqadi.

Mahalla aholisi bu masala bo'yicha mas'ullarga murojaat qildi, biroq dastlab ularning murojaatiga **yetarli e'tibor berilmadi**. Shundan so'ng bir guruh faol fuqarolar birlashib, muammoni jamoaviy tarzda ko'tardi, mahalla yig'inida muhokama qildi va tegishli tashkilotlarga umumiy murojaat yubordi. Natijada mas'ul tashkilotlar holatni qayta o'rganib chiqdi va **nosoz jihozlar yangisiga almashtirildi**.

Muhokama savollari:

1. Bu vaziyatda fuqarolik jamiyati institutlari qanday rol o'ynadi?
2. Nega fuqarolarning jamoaviy murojaati samara berdi?
3. Davlat boshqaruvida jamoatchilik nazorati nima uchun muhim?
4. Agar fuqarolar faollik ko'rsatmaganida, vaziyat qanday tus olardi?
5. Bu holatni korrupsiyaga qarshi kurash bilan qanday bog'lash mumkin?
6. Fuqarolik jamiyati davlat faoliyatini qay tarzda nazorat qiladi?

Fuqarolik jamiyati: umumlashtiruvchi infografika



Fuqarolik jamiyatining barcha institutlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Ular birgalikda davlat bilan jamiyat o'rtasida muvozanatni ta'minlaydi, fuqarolarning manfaatlarini himoya qiladi va mamlakat taraqqiyotiga hissa qo'shadi.

Xulosa va asosiy fikrlar

1

Fuqarolik jamiyati — taraqqiyot poydevori

Fuqarolik jamiyati davlatdan mustaqil bo'lib, fuqarolar, jamoat tashkilotlari va ijtimoiy guruhlar faoliyati orqali jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shadi.

2

Institutlar birgalikda ishlaydi

Oila, NNT, kasaba uyushmalari, OAV va boshqa institutlar davlat boshqaruvini to'ldiradi va jamoatchilik nazoratini ta'minlaydi.

3

Ochiqlik — demokratiyaning asosi

Davlat organlari faoliyatida ochiqlik va shaffoflik korrupsiyaning oldini oladi, fuqarolar ishonchini mustahkamlaydi va boshqaruv samaradorligini oshiradi.

4

Faol fuqar — kuchli jamiyat

Har bir fuqaroning jamiyat hayotida faol ishtiroki, o'z huquqlarini bilishi va ularni himoya qilishi kuchli va adolatli jamiyat qurishning asosiy shartidir.



Esda tuting: Fuqarolik jamiyatining kuchi — har bir fuqaroning faolligida! Siz ham kelajakda bu jamiyatning mas'ul a'zosisiz.

